

## YURTIMIZ QISHLOQ XO'JALIGI UCHUN KAM XARJ FOYDALI O'SIMLIK SIFATIDA KICHIK RYASKADAN (LEMNA MINOR L) FOYDALANISH

*Bazarbayev Zokirjon Qadambayevich*  
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,*  
*chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti magistri*  
[zokirjonbazarbaev095@gmail.com](mailto:zokirjonbazarbaev095@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Kichik Ryaska (Lemna minor L) haqida uning foydali jihatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Kichik Ryaska (Lemna minor L), aminokislota, oqsillar, arginin, fotosintez, organik moddalar, mikroelementlar,

Hozirgi kunda butun dunyoda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-sonli "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" to'g'risidagi qaroriga muvofiq, hukumat va jamoat tashkilotlari tomonidan yaratilgan ustuvor yo'nalishlarga tayangan holda yurtimizda

sifatli, ekologik toza, kam xarj, foydali hususiyatlarni o'zida jamlagan ozuqa mahsulotlari topish ularni xususiyatlari o'rganish va yetishtirish ishlari ustida ishlanmoqda. Shularni inobatga olgan holda Ryaska (Lemna minor L) o'simligi haqida ma'lumot bermoqchiman Kichik ryaska (Lemna minor L) Araceae ko'p yillik yuksak suv o'simligi bo'lib, suv yuzasida suzib o'sadi. Lemna minor organik moddalarga boy xar qanday ko'lmk suvlarda o'sib ko'paydigan, sovuq va issiq havoga chidamli dorivor suv o'simligi hisoblanadi. Lemna minorning barglari va ildizchalari mavjud bo'lib, asosan vegetative yo'l bilan ko'payadi O'simlikning kattaligi 5-6 mm tashkil etadi. Ryaska fotosintez jarayonida ko'p miqdora kislorod ishlab chiqaradi oqava suvlarni tozalashda ham undan foydalanish mumkin. Bundan tashqari ryaska tarkibida foydali organik moddalar tabiiy sharoitda yetishtirilib qurtilgan ryaska tarkibida 30% gacha maxsus sharoitda yetishtirilganda esa 45% gacha oqsil mddasi saqlaydi. Tarkibidagi aminokislotalar (arginin, lizin) miqdori bo'yicha makkajo'xoridan yuqorida turadi. Bundan tashqari ryaskanig tarkibida yog'lar, uglevodlar, kletchatka, asparag va glutamin kislotalari fitosterinlar, flavonoidlar, diterpenoidlar, karotinoidlar, aromatik va yog' kislotalari, fosofolipidlar, azotli birikmalar, triterpen birikmalar, oshlovchi moddalar bor. Tarkibida yana polisaxaridlar, sulfolipidlar, muhim mikroelementlardan brom, yod, fosfor, kalsiy, kremniy, magniy, mis, temir, sink, marganets, kobalt, nikel, titan, vanadiy, radiy, sirkoniy va hatto oltin, vitaminlardan V gruppasi, A, RR, Ye mavjud. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, o'tgan asrning 70-yillarida o'tkazilgan tajribalar natijasida

O'zbekiston sharoitida bu o'simlik bir gektar maydonda 260 tonnagacha hosil berishi mumkinligi ko'rsatilgan. Ryaskani yetishtirish uchun sayoz ko'lmaklar, bo'sh yotgan ko'llar, daryo irmoqlari, sun'iy va tabiiy hovuzlardan foydalansa bo'ladi. Hosil haftasiga ikki marta yig'ishtirilib olinadi. Quritib olib saqlab qo'ysa bo'ladi. Suv ustida qalin qatlam hosil qiladi va shu bilan zararkunanda o'tlarning rivojlanishiga yo'l bermaydi. Yuqori biomassa olish uchun suvga mineral yoki madaniy o'g'itlar me'yorida tashlab turiladi. Shu bilan birga yaxshi natijaga erishish uchun uni nazorat qilib turish, hosilni o'z vaqtida yig'ib olish lozim. Bu o'simlikning optimal o'sishini, yuqori hosil berishini ta'minlaydi. Uni ho'l holida ham, quritilgan holida ham hayvon, parranda va baliqlarga bersa bo'ladi. Ryaska asosan kurtaklash yo'li bilan ko'payadi. Bargsimon poya asosining ikki tomonida mahsus qopchiqcha bo'lib, undan yangi kurtak-yosh o'simlikcha o'sib chiqadi. Ancha vaqtgacha bu yosh ryaska ona o'simlik bilan birlashib yuradi. Keyinchalik u ona ryaskadan ajralib chiqib, mustaqil o'sadi. Ko'pchilik vaqtlarda yosh ryaska ona o'simlikdan ajralib chiqmasdanoq, o'zining qopchig'ida yangi kurtak hosil qiladi va u o'sa boshlaydi. Yosh ryaska ona o'simlikdan ajralguncha 2-3 ryaskacha bo'lib turadi. Shu tariqa zanjirsimon o'sish boshlanib ketadi. Bitta ona ryaska o'z qopchig'idan 30 gacha yosh ryaska hosil qiladi. Kurtaklarning o'sib chiqish tezligi ona ryaska keksaygan sari sekinlashadi. Ryaska jinsiy yo'l bilan ham ko'payadi. Ryaskaning guli bargsimon poyaning yonida joylashgan mahsus qopchiqchada hosil bo'ladi. Gul etilgandan keyin barg poyaning ustidan otilib chiqadi. Ryaskaning guli ochiq, gulkosa, gultojibargi yo'q, bir otaliq yoki onalikdan iborat, bir uyli. Bir o'simlikning o'zida otalik guli alohida va onalik guli alohida bo'ladi. Onalik guli 2 kun va otalik guli 7-9 kun yashaydi. Ryaskaning changlanishi shamol yordamida bo'ladi. Changlanishdan keyin hosil bo'lgan meva pishib etilib suvning tagiga tushadi; u erda tinchlik davriuni o'tab, bahorda undan yosh o'simlikcha etilib chiqadi. Ryaskaning gullash vaqti iyul, avgust oylariga to'g'ri keladi. Ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda ryaskaning ildizi uning ovqatlanishi uchun emas, balki ryaskani suvning yuzasida ma'lum holatda tutib turish uchun kerak, bargpoya ildiz vazifasini ham bajaradi deb noto'g'ri fikr yuritiladi. Oqar suv ryaskani ko'paytirish uchun yaramaydi. Uning tabiiy o'sish joylari – turgan suvlar. Oqim tezligi 0.1 sm/sek.dan oshmasligi kerak. Ko'lmakning chuqurligi eng kamida 20 sm. bo'lishi lozim. Shu bilan birga suv toshib ketmaydigan joy bo'lishi kerak, zero unda suv bilan qo'shilib yuvilib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda va internet ma'lumotlarida keltirilishicha ryaska xalq tabobatida ko'p yillardan beri dorivor o'simlik sifatida bir qancha kasalliklarni davolashda foydalanib kelinmoqda. Ryaska yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Nastoykasi og'iz bo'shlig'i va yuqori nafas yo'li kasalliklarini davolashda keng foydalaniladi. Teridagi ok dog'larni (vitiligo) yo'qotishda, yiringli yaralarni davolashda qo'llaniladi. Bundan tashqari qalqonsimon bez kasalliklarini davolashda yodga boy o'simlik sifatida ishlatiladi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish kerakki bu o'simlik bilan qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, chorvachilik kabi yana ko'plab sohalarda istiqbolli natijalarga erishish mumkin bo'ladi

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. internet ma'lumotlar [ihttp://earthpapers.net/ryaski-vodoemov-uzbekistana-i-opyt-ih-massovogo-kultivirovaniya](http://earthpapers.net/ryaski-vodoemov-uzbekistana-i-opyt-ih-massovogo-kultivirovaniya)
2. Фирсова С. С., Богдашич М. Болезни щитовидной железы. (Домашняя энциклопедия здоровья). –М.: Просвещение, 1982. - 107 с.
3. Махлаюк В. П. Лекарственные растения в народной медицине. - Саратов, 1967. - 205 с.